



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

*2024- yil yanvar-noyabr oyi  
uchun dastlabki ma'lumot*

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
(62) 224-65-09*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-noyabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 799,4 mln AQSH dollarini tashkil qildi va 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 5,3 mln AQSH dollariga yoki 0,7 % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr 2024- yil, mln AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **799,4** -0,7 %

(2023- y.: **804,7**)



Saldo

2024- y.: **-42,6** (2023- y.: **-243,8**)




### Eksport

2024- y.: **378,4** +34,9 %

(2023- y.: **280,4**)

TSA'dagi ulushi, % da



### Import

2024- y.: **421,0** -19,7 %

(2023- y.: **524,3**)





**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSA da eksport hajmi 378,4 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 34,9 % ga ko‘paydi) va import hajmi 421,0 mln AQSH dollariga (19,7 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 42,6 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



## XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)











<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 206 244,0</p> <p>Eksport: 105 595,3 Import: 100 648,7</p> <p> 25,8 %</p>	<p><b>Braziliya</b></p> <p>TSA – 109 190,0</p> <p>Eksport: 10,0 Import: 109 180,0</p> <p> 13,7 %</p>	<p><b>Pokiston</b></p> <p>TSA – 94 798,6</p> <p>Eksport: 94 253,5 Import: 545,1</p> <p> 11,9 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 83 074,2</p> <p>Eksport: 12 053,9 Import: 71 020,3</p> <p> 10,4 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p>TSA – 61 233,8</p> <p>Eksport: 61 233,8 Import: 0,0</p> <p> 7,7 %</p>
<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 43 772,5</p> <p>Eksport: 24 335,7 Import: 19 436,8</p> <p> 5,5 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 33 110,1</p> <p>Eksport: 26 423,4 Import: 6 686,7</p> <p> 4,1 %</p>	<p><b>Eron</b></p> <p>TSA – 30 842,9</p> <p>Eksport: 14 587,3 Import: 16 255,6</p> <p> 3,9 %</p>	<p><b>Belarus</b></p> <p>TSA – 29 952,7</p> <p>Eksport: 5 088,7 Import: 24 864,0</p> <p> 3,7 %</p>	<p><b>Islandiya</b></p> <p>TSA – 22 560,9</p> <p>Eksport: 1,2 Import: 22 559,7</p> <p> 2,8 %</p>





Xorazm viloyati jahonning 144 mamlakat bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (25,8 %), Braziliyada (13,7 %), Pokistonda (11,9 %), XXRda (10,4 %), Afg‘onistonda (7,7 %) va Turkiyada (5,5 %) qayd etilgan.



## XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	<b>145 388,1</b>	<b>164 914,6</b>	<b>206 244,0</b>
 Eksport	89 662,7	86 399,6	105 595,3
Import	55 725,4	78 515,0	100 648,7
<b>Braziliya</b>	<b>175 735,9</b>	<b>151 515,2</b>	<b>109 190,0</b>
 Eksport	1,4	1,9	10,0
Import	175 734,5	151 513,3	109 180,0
<b>Pokiston</b>	<b>10 164,0</b>	<b>78 129,3</b>	<b>94 798,6</b>
 Eksport	9 899,1	77 857,4	94 253,5
Import	264,9	271,9	545,1
<b>XXR</b>	<b>99 575,7</b>	<b>100 880,1</b>	<b>83 074,2</b>
 Eksport	9 478,9	10 116,5	12 053,9
Import	90 096,8	90 763,6	71 020,3
<b>Afg'oniston</b>	<b>1 688,2</b>	<b>1 448,7</b>	<b>61 233,8</b>
 Eksport	1 688,2	1 448,7	61 233,8
Import	-	-	-
<b>Turkiya</b>	<b>107 000,5</b>	<b>55 579,6</b>	<b>43 772,5</b>
 Eksport	23 740,4	11 644,3	24 335,7
Import	83 260,2	42 935,3	19 436,8
<b>Qozog'iston</b>	<b>53 508,2</b>	<b>27 422,9</b>	<b>33 110,1</b>
 Eksport	42 676,0	17 519,4	26 423,4
Import	10 832,2	9 903,5	6 686,7
<b>Eron</b>	<b>8 734,1</b>	<b>19 597,6</b>	<b>30 842,9</b>
 Eksport	2 703,8	10 506,0	15 587,3
Import	6 030,3	9 091,6	16 255,6
<b>Belarus</b>	<b>9 388,9</b>	<b>21 120,2</b>	<b>29 952,7</b>
 Eksport	1 893,0	2 400,1	5 088,7
Import	7 495,9	18 720,1	24 864,0
<b>Islandiya</b>	<b>1,1</b>	<b>1,6</b>	<b>22 560,9</b>
 Eksport	1,1	1,6	1,2
Import	-	-	22 559,7

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Germaniya</b>	<b>9 305,1</b>	<b>36 196,0</b>	<b>20 965,7</b>
	<i>Eksport</i>	1 501,6	478,5	960,9
	<i>Import</i>	7 803,5	35 717,5	20 004,9
	<b>Turkmaniston</b>	<b>10 576,6</b>	<b>11 987,4</b>	<b>10 890,0</b>
	<i>Eksport</i>	3 814,9	2 356,0	2 791,3
	<i>Import</i>	6 761,7	9 631,4	8 099,7
	<b>Iroq</b>	<b>452,0</b>	<b>2 338,7</b>	<b>6 642,3</b>
	<i>Eksport</i>	452,0	2 338,7	6 624,2
	<i>Import</i>	-	-	18,1
	<b>Hindiston</b>	<b>12 552,1</b>	<b>10 121,1</b>	<b>4 398,2</b>
	<i>Eksport</i>	323,7	1 445,7	1 631,6
	<i>Import</i>	12 228,3	8 675,4	2 766,5
	<b>Litva</b>	<b>11 967,3</b>	<b>20 142,5</b>	<b>3 459,6</b>
	<i>Eksport</i>	490,6	1 074,0	208,9
	<i>Import</i>	11 476,7	19 068,5	3 250,6
	<b>AQSh</b>	<b>191,1</b>	<b>1 228,9</b>	<b>2 710,8</b>
	<i>Eksport</i>	147,8	901,6	1 465,8
	<i>Import</i>	43,3	327,3	1 245,0
	<b>BAA</b>	<b>601,6</b>	<b>4 306,1</b>	<b>2 565,3</b>
	<i>Eksport</i>	349,9	307,8	1 930,2
	<i>Import</i>	251,6	3998,3	635,1
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>3 743,1</b>	<b>3 509,1</b>	<b>2 548,6</b>
	<i>Eksport</i>	261,5	126,1	50,3
	<i>Import</i>	3 481,6	3 383,0	2 498,2
	<b>Niderlandiya</b>	<b>421,1</b>	<b>1 251,9</b>	<b>2 425,0</b>
	<i>Eksport</i>	3,4	8,9	25,2
	<i>Import</i>	417,7	1 243,0	2 399,8
	<b>Tojikiston</b>	<b>4 392,5</b>	<b>13 131,0</b>	<b>1 988,0</b>
	<i>Eksport</i>	4 138,0	13 097,9	1 988,0
	<i>Import</i>	254,5	33,1	-




## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI



(2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)\*

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



2023- y.


2024- y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushga Tuproqqal'a tumani 23,0 % ulush yoki 183,8 mln AQSH dollari, eng quyi ulushga esa Bog'ot tumani 2,7 % ulush yoki 21,3 mln AQSH dollari bilan ega bo'ldi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,0 % bo'lib, 287,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan jami TSA dagi ulushi 64,0 % bo'lib, 511,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr oyi holatiga ko'ra, 287,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 145,8 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 141,7 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### XORAZM VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 25,8		Ozarbayjon – 0,2	
Qozog'iston – 4,1		Ukraina – 0,2	
Belarus – 3,7		Qirg'iz Respublikasi – 0,2	
Turkmaniston – 1,4		Moldova – 0,02	
Tojikiston – 0,2		Armaniston – 0,01	




Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (25,8 %), Qozog'iston (4,1 %) hamda Belarus (3,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)



Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 270,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 138,5 mln AQSH dollari, import hajmi esa 132,4 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## XORAZM VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 180 taga yetdi va ular tomonidan 378,4 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 34,9 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>280 435,6</b>	<b>378 426,6</b>	<b>121,6</b>	<b>134,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	131 852,4	232 614,4	168,0	176,4	47,0	61,5
Ichimliklar va tamaki	2 428,1	366,9	1010,5 m.	15,1	0,9	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4 547,2	5 252,8	82,2	115,5	1,6	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 897,3	3 383,6	64,6	116,8	1,0	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1 126,3	-	-	-	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 766,9	777,4	2,1 m.	44,0	0,6	0,2
Sanoat tovarlari	96 401,1	107 781,7	96,7	111,8	34,4	28,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	439,9	504,1	2,2 m.	114,6	0,2	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	29 457,9	8 288,3	103,1	28,1	10,5	2,2
Xizmatlar	10 644,7	18 331,1	93,3	172,2	3,8	4,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,2 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (61,5 %), sanoat tovarlari (28,5 %) va turli xil tayyor buyumlar (2,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**XORAZM VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2024- yil yanvar-noyabr)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>232 614,4</b>	<b>176,4</b>
Sabzavotlar va mevalar	211 103,9	176,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	21 227,3	186,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	161,6	71,9
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	85,9	56,5
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	32,4	19,6
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,1	47,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>366,9</b>	<b>15,1</b>
Ichimliklar	366,9	15,1
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>5 252,8</b>	<b>115,5</b>
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	2 908,7	92,4
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1 206,4	5,2 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1 099,9	105,7
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	30,3	24,6
Metall rudalari va metall parchalari	7,5	-
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>3 383,6</b>	<b>116,8</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 383,6	116,8
<b>Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar</b>	<b>1 126,3</b>	<b>-</b>
O'simlik moylari va yog'lar, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 126,3	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>777,4</b>	<b>44,0</b>
Bo'yoqlar va taninlar	423,7	93,5
Noorganik kimyoviy moddalar	259,6	46,2
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	58,0	40,5
O'g'itlar	23,2	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	10,7	6,9
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,3	1,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,9	0,4


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>107 781,7</b>	<b>111,8</b>
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	98 033,7	116,3
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	6 788,7	61,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	2 847,1	3,8 m.
Boshqa metall buyumlar	85,0	41,3
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	9,2	38,2
Rezina buyumlar	8,0	3,1 m.
Quyma temir va po'lat	5,9	2,6 m.
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	4,1	49,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>504,1</b>	<b>114,6</b>
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	200,3	135,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	121,3	77,2
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	90,5	2,5 m.
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	57,7	2,3 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	23,5	36,8
Boshqa transport uskunolari	9,7	3,9 m.
Metallni qayta ishlash uskunolari	1,1	25,3 m.
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>	<b>8 288,3</b>	<b>28,1</b>
Kiyim va kiyim aksessuarlari	7 375,6	31,0
Oyoq kiyimlari	547,6	15,0
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	142,0	34,3
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	122,7	23,2
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	83,5	3,0 m.
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari	14,7	9,6
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	2,2	0,2

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi 38,5 % ni tashkil qildi va 145,8 mln AQSH dollariga yetdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Eron va XRR kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 89,4 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	86 399,6	105 595,3	96,4	122,2	1	1
Pokiston	77 857,4	94 253,5	7,9 m.	121,1	2	2
Afg'oniston	1 448,7	61 233,8	85,8	42,3 m.	14	3
Qozog'iston	17 519,4	26 423,4	41,1	150,8	4	4
Turkiya	11 644,3	24 335,7	49,0	2,1 m.	6	5
Eron	10 506,0	14 587,3	3,9 m.	138,8	7	6
Xitoy	10 116,5	12 053,9	106,7	119,2	8	7
Iroq	2 338,7	6 624,3	5,2 m.	2,8 m.	13	8
Belarus	2 400,1	5 088,7	126,8	2,1 m.	11	9
Turkmaniston	2 356,0	2 791,3	61,8	118,5	12	10
Tojikiston	13 097,9	1 988,0	3,2 m.	15,2	5	11
BAA	307,8	1 930,2	88,0	6,3 m.	22	12
Hindiston	1 445,7	1 631,6	4,5 m.	112,9	15	13
Ozarbajjon	958,6	1 508,2	130,3	157,3	18	14
AQSh	901,6	1 465,8	6,1 m.	162,6	19	15
Qirg'iz Respublikasi	27 151,8	1 364,5	94,5	5,0	3	16
Polsha	4 731,3	1 049,0	5,1 m.	22,2	9	17
Vyetnam	1 143,5	1 005,5	79,2	87,9	16	18
Germaniya	478,5	960,9	31,9	2,0 m.	20	19
Ukraina	299,7	840,9	25,5	2,8 m.	23	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)\*



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani 11,7 % bilan 44,2 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Hazorasp tumani 3,0 % bilan 11,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI







Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oyida 192,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 178,7 foizga yoki 84,7 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (35,0 %), Afg'oniston (27,5 %), Rossiya (19,4 %) hamda Qozog'iston (10,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 210,6 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari, ulushi qiymatga nisbatan)

<p><b>Dukkakli sabzavotlar</b></p> <p>136 017,8 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>26 825,8 <i>tonna</i></p> <p> 64,6 %</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>5 726,6 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>25 129,3 <i>tonna</i></p> <p> 2,7 %</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>4 757,7 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>4 971,3 <i>tonna</i></p> <p> 2,3 %</p>	<p><b>Piyoz va sarimsoq</b></p> <p>7 380,6 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>40 207,9 <i>tonna</i></p> <p> 3,5 %</p>
<p><b>Olcha va gilos</b></p> <p>2 908,2 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>12 489,2 <i>tonna</i></p> <p> 1,4 %</p>	<p><b>Uzum</b></p> <p>23 040,2 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>28 446,7 <i>tonna</i></p> <p> 10,9 %</p>	<p><b>Xurmo</b></p> <p>7 930,4 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>12 994,9 <i>tonna</i></p> <p> 3,8 %</p>	<p><b>Olma</b></p> <p>870,7 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>2 133,0 <i>tonna</i></p> <p> 0,4 %</p>
<p><b>Limon</b></p> <p>521,6 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>348,1 <i>tonna</i></p> <p> 0,2 %</p>	<p><b>Qovun-tarvuz</b></p> <p>4 979,1 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>20 928,0 <i>tonna</i></p> <p> 2,4 %</p>	<p><b>O'rik</b></p> <p>6 876,1 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>6 322,5 <i>tonna</i></p> <p> 3,3 %</p>	<p><b>Boshqa meva va savzavotlar</b></p> <p>9 558,3 <i>ming AQSH dollari</i></p> <p>11 491,0 <i>tonna</i></p> <p> 4,5 %</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	14 708,0	73 721,0	35,0
 Afg'oniston	9 994,4	58 005,5	27,5
 Rossiya	69 911,1	40 822,6	19,4
 Qozog'iston	78 192,9	22 078,1	10,5
 Iroq	3 133,0	4 611,4	2,2
 Eron	7 148,9	3 728,3	1,8
 Turkiya	1 248,5	2 185,2	1,0
 BAA	2 647,4	1 444,9	0,7
 Turkmaniston	1 299,0	1 125,4	0,5
 Ukraina	903,3	631,9	0,3
 Ozarbayjon	371,5	591,1	0,3
 boshqa davlatlar	2 729,6	1 622,2	0,8

\* qiymat ifodasidan




2024- yil yanvar-noyabr oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 35,0 % i) bu ko'rsatkich Afg'onistonga eksport hajmidan 27,1 % ga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 18 331,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 4,8 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 72,2 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (53,9 %), transport (7,0 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (21,3 %) va boshqa moliyaviy xizmatlar (17,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## XORAZM VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-noyabr oyida import hajmi 421,0 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 80,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (44,8 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (30,0 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (10,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)





## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>524 268,0</b>	<b>421 019,0</b>	<b>105,1</b>	<b>80,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	184 172,6	188 568,2	98,0	102,4	35,1	44,8
Ichimliklar va tamaki	205,8	559,3	186,4	2,7	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	36 876,7	43 098,1	102,9	116,9	7,0	10,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10 490,1	6 746,3	136,4	64,3	2,0	1,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 941,9	2 619,0	96,8	89,0	0,6	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	21 464,4	22 738,5	95,4	105,9	4,1	5,4
Sanoat tovarlari	38 234,3	18 333,2	115,5	47,9	7,3	4,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	215 761,1	126 506,0	115,7	58,6	41,2	30,0
Turli xil tayyor buyumlar	14 121,1	11 850,5	63,4	83,9	2,7	2,8



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>188 568,2</b>	<b>102,4</b>
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	168 671,3	101,5
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	8 564,3	119,7
Don va ularning mahsulotlari	4 804,4	94,3
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	4 205,9	129,1
Sabzavotlar va mevalar	870,0	87,9
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	820,8	144,4
Tirik hayvonlar	469,9	73,0
Baliqlar (dengiz sutemizuvchilari emas), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suv umurtqasizlari va ulardan tayyorlangan preparatlar	74,0	-
Go'sht va go'sht mahsulotlari	72,2	-
Turli xil ovqatlar va dorilar	15,4	6,5
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>559,3</b>	<b>2,7 m.</b>
Ichimliklar	559,3	2,7 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>43 098,1</b>	<b>116,9</b>
Yog'och mahsulotlari	39 932,1	119,4
To'qimachilik tolalari	2 221,1	80,4
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	374,7	3,8 m.
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	279,2	67,3
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	279,2	10,6 m.
Qog'oz xamiri va makulatura	7,0	122,8
Metall rudalari va metall parchalari	3,8	30,6 m.
Tabiiy kauchuk	1,1	0,8
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>6 746,3</b>	<b>64,3</b>
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	6 332,3	65,2
Ko'mir, koks va briketlar	246,7	31,7
Gaz, tabiiy va sun'iy	167,3	-
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>2 619,0</b>	<b>89,0</b>
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 598,4	88,3
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	20,6	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>27 738,5</b>	<b>105,9</b>
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13 403,8	144,6
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 403,2	106,6
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 447,5	100,6
Bo'yoqlar va taninlar	1 444,1	75,5
Organik kimyoviy moddalar	1 360,7	4,4 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	968,7	112,1
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	774,6	70,9
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	548,7	57,7
O'g'itlar	387,1	11,5


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>18 333,2</b>	<b>47,9</b>
Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	4 382,6	58,9
To'qimachilik iplari, matolar	3 804,8	99,5
Metall buyumlar	2 846,4	71,2
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	2 569,5	65,1
Quyma temir va po'lat	1 918,7	12,1
Rezina buyumlar	1 471,5	123,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	1 299,5	70,1
Rangli metallar	40,2	34,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>126 506,0</b>	<b>58,6</b>
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	51 107,8	38,1
Boshqa transport vositalari	22 678,2	108,9 m.
Avtomobil va ularning ehtiyot qismlari	19 521,2	81,2
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	14 419,7	75,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	12 572,6	40,7
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	3 509,0	65,6
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	1 550,3	158,8
Metallni qayta ishlash mashinalari	645,4	89,4
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunalar	501,9	117,9
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>11 850,5</b>	<b>83,9</b>
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	6 689,3	102,5
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 991,4	67,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 813,7	83,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	136,4	17,7
Poyabzal	98,9	80,7
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	72,0	4,0 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	44,1	106,2
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	4,8	112,0

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-noyabr oyi natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlarining import ulushi 33,7 % ni tashkil etdi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oyida viloyatimiz 61 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, Rossiya, XXR, Belarus, Islandiya, Germaniya va Turkiya) jami importning 86,9 % ini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)








## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Braziliya	151 513,3	109 180,0	86,2	72,1	1	1
Rossiya	78 515,0	100 648,7	140,9	128,2	3	2
Xitoy	90 763,6	71 020,3	100,7	78,2	2	3
Belarus	18 720,2	24 864,0	2,5 m.	132,8	7	4
Islandiya		22 559,7	-	-	-	5
Germaniya	35 717,5	20 004,9	4,6 m.	56,0	5	6
Turkiya	42 935,3	19 436,8	51,6	45,3	4	7
Eron	9 091,6	16 255,6	150,8	178,8	10	8
Turkmaniston	9 631,4	8 099,7	142,4	84,1	9	9
Qozog'iston	9 903,5	6 686,7	91,4	67,5	8	10
Litva	19 068,5	3 250,7	166,1	17,0	6	11
Hindiston	8 675,4	2 766,5	70,9	31,9	11	12
Koreya Respublikasi	3 383,0	2 498,2	97,2	73,8	18	13
Niderlandiya	1 243,0	2 399,8	3,0 m.	193,1	25	14
AQSH	327,3	1 245,0	7,5 m.	3,8 m.	31	15
Ispaniya	1 626,7	993,3	4,1 m.	61,1	22	16
Ukraina	783,4	856,7	50,3	109,4	27	17
Italiya	2 127,5	700,9	4,6 m.	32,9	20	18
Bangladesh	1 654,4	662,6	82,7	40,1	21	19
BAA	3 998,2	635,1	15,9 m.	15,9	15	20

## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.


Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani 37,9 % bilan 159,6 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangibozor tumani 0,5 % bilan 2,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-noyabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari (tovarlari) hajmi 18,3 mln AQSH dollarini, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47,9 % ni tashkil qilib, importning umumiy hajmidagi ulushi 4,4 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)

5 167,8 ming AQSH doll.  
ulushi – 28,2 %



Rossiya

2 904,5 ming AQSH doll.  
ulushi – 15,8 %



XXR

2 631,1 ming AQSH  
doll. ulushi – 14,4 %



Turkiya

1 796,6 ming AQSH doll.  
ulushi – 9,8 %



Germaniya

1 696,2 ming AQSH  
doll. ulushi – 9,3 %



Turkmaniston



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (4,4 mln AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (3,8 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (2,8 mln AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari (2,6 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.